



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2026

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ермегов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
*Масъул котиб*

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
*Масъул котиб*

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқулловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Bahodir Isakov</b> O‘ZBEKISTONDAGI QOZOQ ETNOSI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	5
<b>2. Abduvali Berdiyev, Soatqulov Islom</b> XIVA XONLARI VA USMONLI SULTONLARI O‘RTASIDAGI YOZISHMALAR: DIPLOMATIK MAKTUBLAR TILI VA USLUBI.....	10
<b>3. Пётр Чублук</b> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСТОРИИ ГРЕКО-МАКЕДОНЦЕВ НА ТЕРРИТОРИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ ПРИ СЕЛЕВКИДАХ.....	14
<b>4. Shahlo Ubaydullayeva</b> O‘ZBEKISTON TIBBIYOTIDA XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI VA ONA-BOLA SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH MUAMMOLARI (XX ASRNING IKKINCHI YARMI MISOLIDA).....	22
<b>5. Mirhomid Mirakbarov</b> O‘ZBEKISTON GEOLOGIYASI TARIXIDA MURUNTOV OLTIN KONINING KASHF ETILISHI VA MAMLAKATIMIZ SANOATIDA TUTGAN O‘RNI.....	28
<b>6. Mirjalol Abdullayev</b> SHAYBONIYLAR DAVRIDA MUKOFOTLASH VA JAZOLASH TIZIMI (“MUSAXXIR AL- BILOD” ASARI MISOLIDA).....	35
<b>7. Abdillajon Pazilov</b> BENJAMIN FRANKLINNING IQTISODIY VA FALSAFIY QARASHLARI.....	41
<b>8. Mashhura Burxanova</b> ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI STRATEGIK MAQSADLARI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	46
<b>9. Равшан Хомитов</b> ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭТНОСЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРДА РЕСПУБЛИКА ҚОЗОҚ МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МАРКАЗИНИНГ ЎРНИ.....	51
<b>10. Iqbol Jabbarova</b> РАХТАЧИЛИКНИ RIVOJLANTIRISH YO‘LIDA: QASHQADARYO IRRIGATSIYA TIZIMINING BOSHLANG‘ICH TRANSFORMATSIYASI (1930–1940-y.).....	57
<b>11. Rabiyajon Ibragimova</b> QUYI AMUDARYO HUDUDIDA ANTIK DAVR SUG‘ORISH INSHOOTLARI.....	64
<b>12. Gulrux Fayzullayeva, Shoira Nurullayeva</b> AL XORAZMIY HAQIDA.....	68



**Bahodir Nigmatullayevich Isakov,**  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

## O‘ZBEKISTONDAGI QOZOQ ETNOSI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

**For citation:** Bakhadir N. Isakov. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR STUDYING THE HISTORY OF THE KAZAKH ETHNOS IN UZBEKISTAN. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 4.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19845776>

### ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekistondagi qozoq etnosi tarixini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Muallif sovet tarixshunosligidagi marksistik yondashuvdan zamonaviy metodologik plyuralizmga o‘tish jarayonini yoritib beradi. Tadqiqotda L.Gumilyovning etnogenez nazariyasi, F.Bartning “etnik chegaralar” va B.Andersonning “tasavvur qilingan jamoalar” konsepsiyalari asosida O‘zbekiston qozoqlarining avtohton (tubjoy) tabiati hamda sotsiomadaniy integratsiyasi tadqiq etilgan. Maqolada qozoq diasporasining mintaqaviy barqarorlik va madaniy hamkorlikdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston qozoqlari, diaspora, avtohton aholi, metodologiya, etnogenez, etnik chegara, tasavvur qilingan jamoa, sotsiomadaniy integratsiya.

---

**Бахадир Нигматуллаевич Исаков,**  
Узбекский государственный университет мировых языков,  
кандидат исторических наук, доцент

## ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ КАЗАХСКОГО ЭТНОСА В УЗБЕКИСТАНЕ

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются теоретико-методологические основы изучения истории казахского этноса в Узбекистане. Автор освещает переход от марксистского подхода советской историографии к современному методологическому плюрализму. На основе теории этногенеза Л.Гумилева, концепций «этнических границ» Ф.Барта и «воображаемых сообществ» Б.Андерсона исследуется автохтонная природа и социокультурная интеграция казахов Узбекистана. В статье научно обосновывается роль казахской диаспоры в региональной стабильности и культурном сотрудничестве.

**Ключевые слова:** казахи Узбекистана, диаспора, автохтонное население, методология, этногенез, этническая граница, воображаемое сообщество, социокультурная интеграция.

**Bakhadir N. Isakov,**  
Uzbekistan State World Languages University,  
Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

## THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR STUDYING THE HISTORY OF THE KAZAKH ETHNOS IN UZBEKISTAN

### ABSTRACT

The article analyzes the theoretical and methodological foundations of studying the history of the Kazakh Ethnos in Uzbekistan. The author highlights the transition from the Marxist approach of Soviet historiography to modern methodological pluralism. Based on L.Gumilyov's theory of ethnogenesis, F.Barth's "ethnic boundaries", and B.Anderson's "imagined communities" concepts, the research examines the autochthonous (indigenous) nature and socio-cultural integration of Kazakhs in Uzbekistan. The article scientifically substantiates the role of the Kazakh diaspora in regional stability and cultural cooperation.

**Index Terms:** Kazakhs of Uzbekistan, diaspora, autochthonous population, methodology, ethnogenesis, ethnic boundary, imagined community, socio-cultural integration.

### Dolzarbliigi:

Zamonaviy globallashuv va Markaziy Osiyodagi keng ko'lamli geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida etnik diasporalarni o'rganish alohida dolzarblik kasb etmoqda. O'zbekiston qozoqlari tarixiga nazar solinsa, ularning ushbu hududda azaldan istiqomat qilib kelayotgan avtoxton (tubjoy) aholi ekanligini hamda mintaqadagi boshqa xalqlar bilan madaniy-ijtimoiy jihatdan uzviy bog'langanini ko'rish mumkin. Qozog'istondan tashqarida yashovchi etnik qozoqlarning dunyo miqyosidagi eng katta qismi Xitoyda, Markaziy Osiyo mintaqasida esa aynan O'zbekistonda istiqomat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Qozoq milliy madaniy markazi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatdagi qozoqlar soni 813 627 nafarni tashkil etgan[1].

Mavzuning nazariy-metodologik asoslarini ilmiy o'rganish O'zbekistondagi qozoqlar tarixini oddiy migratsion jarayon sifatida emas, balki murakkab sotsiomadaniy fenomen sifatida tahlil qilishni taqozo etadi. Bu, o'z navbatida, polietnik muhitda milliy o'zlikni saqlash mexanizmlari va ijtimoiy moslashuv kabi dolzarb masalalarni tadqiq etish zaruriyati bilan belgilanadi.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq respublika hududidagi barcha millat va elatlarning madaniy merosini tiklash hamda rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik an'analari muhim rol o'ynamoqda"[2].

Binobarin, ushbu bag'rikenglik va madaniy hamkorlik tamoyillari nafaqat mamlakat ichidagi barqarorlikda, balki mintaqaviy strategik aloqalarda ham o'z in'ikosini topmoqda. Shu nuqtai nazardan, qozoq diasporasi bilan bog'liq sotsiomadaniy masalalarni o'rganish, ularning milliy o'ziga xosligini saqlashga ko'maklashish va jamiyatning barcha sohalarida yangi imkoniyatlar yaratish – zamonaviy davlat siyosatining ajralmas qismidir.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistondagi qozoq diasporasi tarixini obyektiv yoritishda xizmat qiluvchi nazariy-metodologik asoslarni tahlil qilish hamda uning shakllanish xususiyatlari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini aniqlashdan iborat.

### Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolani tayyorlashda umume'tirof etilgan ilmiy tamoyil va usullarga tayanildi. Xususan, tarixiylik tamoyili uzoq muddatli siyosiy jarayonlar kontekstida diasporaning evolyutsion taraqqiyotini xronologik izchillikda o'rganish imkonini berdi. Fanlararo yondashuv tadqiqotni etnologiya, demografiya va sotsiolingvistika kabi fan sohalariga oid ma'lumotlar bilan boyitib, ularni ilmiy muomalaga kiritish imkonini berdi.

Tadqiqot Uilyam Safran[3] va Robin Koen[4] kabi klassik diaspora nazariyotchilarining etnik tarixga oid zamonaviy qarashlariga tayanadi. U.Safran va R.Koen zamonaviy diaspora tadqiqotlariga asos solgan ikki asosiy nazariyotchidir. Ularning yondashuvi diasporani shunchaki chet eldagi guruh emas, balki ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy va psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan jamoa sifatida belgilaydi. U.Safran odamlarni yangi mamlakatda o'zlarini "begona" his qilishlariga va qaytishni istashlariga nima sabab bo'lishiga e'tibor qaratsa, R.Koen diasporalarning qanday qilib "ajdodlari yurtiga" jismoniy qaytishni orzu qilmasdan ham rivojlanishi mumkin bo'lgan kuchli global tarmoqlarga aylanishini namoyish etadi. Zamonaviy tadqiqotlar uchun, ayniqsa XX va XXI asrlardagi migratsiya jarayonlari kontekstida, R.Koenning yondashuvi yanada moslashuvchan deb hisoblanadi, chunki u global aloqalarning murakkabligini hisobga oladi.

O'zbekiston qozoqlarining salmoqli qismi o'z tarixiy hududlarida muqim istiqomat qilayotganini inobatga olib, "avtohton" tushunchasiga alohida urg'u beriladi. Bu esa "diaspora" atamasining klassik ma'noda qo'llanilishi bo'yicha ilmiy munozaralarga, xususan, ushbu atamaning mahalliy sharoitdagi talqinini qayta ko'rib chiqishga asos bo'ladi.

### **Tadqiqot natijalari:**

O'zbekistondagi qozoq xalqi tarixi Markaziy Osiyo tarixshunosligining muhim, ammo hali to'liq o'rganilmagan yo'nalishlaridan biridir. Mazkur mavzuning murakkabligi nafaqat etnik tarix, balki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, madaniy transformatsiyalar, millatlararo integratsiya va siyosiy jihatlarni qamrab oluvchi keng ko'lamli masalalar bilan bog'liq. O'zbekiston qozoqlari tarixini tadqiq etish jarayoni bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos metodologik yondashuvlari bilan ajralib turadi.

Sovet davri tarixshunosligi milliy masalalarni tadqiq etishda marksistik metodologiyaga tayangan holda, muayyan mafkuraviy cheklovlar doirasida shakllandi. O'sha davrda asosiy e'tibor "xalqlar do'stligi", "yagona sovet xalqi" konsepsiyasi hamda etnik o'ziga xoslikni sotsialistik unifikatsiyalash jarayonlariga qaratildi. Shunday bo'lsa-da, mazkur davrda bugungi kun tadqiqotlari uchun ham fundamental manba bo'lib xizmat qiluvchi boy statistik va arxiv materiallari jamlandi. 1991-yilda O'zbekiston va Qozog'iston mustaqillikka erishgach, qozoq diasporasi tarixini tadqiq etish jarayoni sifat jihatidan yangi bosqichga chiqdi. Milliy o'zlikni anglash va yangi ilmiy maktablarning shakllanishi sharoitida, asosiy diqqat-e'tibor O'zbekistondagi qozoq etnosining o'ziga xos xususiyatlari hamda uning mamlakat madaniy-ijtimoiy taraqqiyotiga qo'shgan salmoqli hissasini yoritishga yo'naltirildi.

Muammoni nazariy-metodologik nuqtai nazardan anglash, ayniqsa, to'plangan ma'lumotlarni tizimlashtirish va kelgusi tadqiqotlar istiqbollari belgilash zarurati tufayli dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqola mavjud yondashuvlarni umumlashtirish, ularning konseptual ustunliklari hamda cheklovlarini aniqlash, shuningdek, chuqur o'rganishni talab qiladigan ilmiy yo'nalishlarni ko'rsatib berishga qaratilgan. Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad – O'zbekistondagi qozoq diasporasi tarixini o'rganishning nazariy va uslubiy asoslarini kompleks tahlil qilishdan iborat.

O'zbekiston qozoqlarining ijtimoiy-siyosiy mavqei va mamlakat hayotidagi o'rni haqida so'z borganda, Prezident Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi e'tirofini keltirish o'rinli: "Mustaqil O'zbekiston erishayotgan barcha muvaffaqiyatlarga ko'p millatli yurtimizda tinch-totuv yashab kelayotgan qozoq millatiga mansub yuz minglab fuqarolarimiz ham salmoqli hissa qo'shayotgani bizni g'oyat quvontiradi. Ularning orasida O'zbekiston parlamenti va mahalliy hokimiyat vakillik organlariga saylanganlar, turli darajadagi rahbarlar ham ko'p. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning qozoq millatiga mansub 600 dan ziyod fuqarosi yuksak davlat mukofoti va unvonlariga sazovor bo'lgani ham ularning mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib, xalqimiz orasida hurmat qozonib, keng e'tirof etib kelinayotganining tasdig'idir"[5].

O'zbekistondagi qozoq etnosi tarixi Markaziy Osiyoning umumiy etnik jarayonlari kontekstida muhim o'rin tutadi. Ushbu mavzuni tadqiq etishdagi nazariy-metodologik yondashuvlar ta'sirida shakllangan ilmiy qarashlar, mazmunan va usluban bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikki davrni qamrab oladi. Bu jarayonni tahlil qilishda sovet davri mafkuraviy yondashuvlaridan zamonaviy fanlararo paradigmalarga o'tishning metodologik asoslarini ko'rib chiqish lozim.

Xususan, sovet tarixshunosligi yagona marksistik-lenincha metodologiya hamda sinfiy yondashuv tamoyillariga tayandi. Bu davrda etnik jarayonlar “yagona sovet xalqi” konsepsiyasiga integratsiyalashuv prizmasi orqali o‘rganildi. Tadqiqotlar asosan qozoq aholisining sotsialistik qurilish, kollektivlashtirish va sanoatlashtirish jarayonlaridagi ishtirokiga qaratildi. Garchi mafkuraviy senzura diasporaning ichki etnomadaniy transformatsiyasi va o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlarini yoritishni cheklab qo‘ygan bo‘lsa-da, aynan shu yillarda keng ko‘lamli statistik ma‘lumotlar va faktik materiallar bazasi shakllantirildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik poydevorini belgilashda zamonaviy yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Xususan, zamonaviy bosqichda metodologik asoslar Lev Gumilyovning[6] etnogenez nazariyasi, Fredrik Bartning[7] “etnik chegaralar” konsepsiyasi va Benedikt Andersonning[8] “xayoliy jamoalar” g‘oyalari bilan boyitildi. Xususan, L.Gumilyov o‘zining etnogenez nazariyasida tabiatshunoslikka asoslangan yondashuvni ilgari suradi: u etnosni biofizik voqelik sifatida tavsiflaydi. Olimning fikricha, etnosning shakllanishi va taraqqiyoti “passionarlik” (ehtirosga beriluvchanlik) hodisasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u insonlarni atrof-muhitni o‘zgartirishga va oliy maqsadlar yo‘lida fidoyilikka undaydigan o‘ziga xos energetik impulsdur. L.Gumilyov talqinida etnos, shunchaki tarixiy tasodiflar mahsuli emas, balki biosfera qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi, jadal yuksalishdan muqarrar inqirozgacha bo‘lgan qat‘iy hayotiy siklni (davriylikni) bosib o‘tuvchi tirik tizimdir.

F.Bart esa asosiy e‘tiborni biologik omillardan ijtimoiy o‘zaro ta‘sir jarayonlariga qaratadi. Uning “etnik chegaralar” konsepsiyasiga ko‘ra, etnos – bu shunchaki madaniy elementlar (til, urf-odatlar) majmuasi emas, balki “boshqalardan” doimiy ravishda farqlanish jarayonidir. F.Bartning fikricha, etnik guruh faqat “biz” va “ular” o‘rtasidagi ijtimoiy chegara saqlanib qolgan taqdirdagina mavjud bo‘ladi. Bunda xalqning moddiy yoki ma‘naviy madaniyati o‘zgargan taqdirda ham, agar jamoa ushbu ramziy chegarani saqlab qolsa va o‘zining alohida guruhga mansubligini anglashda davom etsa, etnik o‘zlik saqlanib qolaveradi.

B.Anderson madaniyat va ong yo‘nalishidagi tadqiqotlarni yanada rivojlantirib, millatlarga nisbatan “tasavvur qilingan jamoalar” atamasini kiritadi. Uning fikricha, millat – bu “bosma kapitalizm” (gazeta va kitoblar) rivoji natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy konstruksiyadir. Millatning “tasavvur qilinganligi” shundaki, uning a‘zolari hech qachon bir-birlarini shaxsan tanimasalar va uchrashmasalar-da, umumiy til hamda axborot makoniga tayangan holda o‘zaro uzviy bog‘liqlik hissini tuyadilar. B.Anderson uchun millat tabiiy-biologik hodisa emas, balki inson ongingning zamonaviy davr talablari asosida dunyoni ijtimoiy tashkil etish usulidir.

L.Gumilyovning etnogenez nazariyasi prizmasidan yondashilganda, O‘zbekistondagi qozoq etnosini “klassik diaspora” (ko‘chib kelganlar) emas, balki avtoxton (tubjoy) aholi sifatida tavsiflash ilmiy jihatdan asoslidir. Zero, ushbu jamoa o‘zining “etnik o‘chog‘i” hisoblangan tabiiy landshaftda (xususan, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida) muqim istiqomat qilib kelmoqda, bunda faqatgina ma‘muriy-siyosiy chegaralarning transformatsiyasi yuz bergan, xolos. Ularga xos “passionarlik” impulsi esa muayyan ekotizimga moslashish, hududni o‘zlashtirish va etnomadaniy barqarorlikni saqlash jarayonlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

F.Bart metodologiyasida asosiy e‘tibor madaniyatning moddiy mazmuniga emas, balki guruhlararo munosabatlarni belgilovchi “ijtimoiy chegara” tushunchasiga qaratiladi. O‘zbekiston qozoqlari va o‘zbek xalqi o‘rtasidagi til, din va urf-odatlardagi mushtaraklik (umumturkiy va islomiy qadriyatlar) ularning o‘zaro yaqinligini ta‘minlaydi. F.Bart nazariyasiga ko‘ra, qozoq jamoasi o‘zbek jamiyatiga to‘la integratsiyalashgan bo‘lsa-da, o‘zaro ijtimoiy munosabatlarda “biz – qozoqmiz” degan ramziy chegarani saqlaydi. Mazkur etnik chegara, ayniqsa, nikoh munosabatlarida, oilaviy marosimlarda va o‘zlikni anglashda yaqqol ko‘rinadi.

B.Anderson millatni insonlar ongida shakllangan “tasavvur qilingan jamoa” sifatida tavsiflaydi. O‘zbekistondagi qozoq aholisi mamlakatning turli hududlarida (Qoraqalpog‘iston Respublikasidan tortib Toshkent viloyatigacha) tarqoq yashasa-da, ular o‘zlarini yagona va yaxlit sotsiomadaniy birlik sifatida idrok etadilar. Ushbu jamoaviy birdamlikni saqlashda B.Anderson ta‘riflagan “bosma kapitalizm”ning zamonaviy ko‘rinishlari, xususan, raqamli media va kommunikatsiya vositalari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Qozoq tilidagi maktablar, “Nurli yol” gazetasi

va qozoq tilidagi teleradio ko'rsatuvlar ushbu jamoaning ongida "yagona millat" haqidagi tasavvurni jonlantirib turadi. Natijada, diaspora vakillari boshqa hududlardagi qondoshlari bilan shaxsan tanish bo'lmalar-da, umumiy axborot va madaniy makon ta'sirida o'zlarini yaxlit bir butunning ajralmas qismi deb his qiladilar.

Yuqorida qayd etilgan nazariy yondashuvlar (L.Gumilyov, F.Bart va B.Anderson qarashlari) O'zbekiston qozoq jamoasini shunchaki statistik birlik emas, balki globallashuv va transchegaraviy jarayonlar sharoitida muttasil o'zgarib boruvchi dinamik biosotsial tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, O'zbekistondagi qozoq etnosi tarixini o'rganish metodologiyasi bir tomonlama sinfiy-marksistik modeldan voz kechib, ijtimoiy-madaniy dinamika hamda global tendensiyalarni hisobga oluvchi ko'p qirrali tahlil tizimiga to'liq transformatsiya bo'ldi. Bu esa mavzuning nafaqat o'tmishini, balki uning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ham yangi bosqichda yoritish imkonini bermoqda.

#### **Xulosa:**

O'zbekistondagi qozoq etnosi tarixini o'rganish jarayonida o'tgan davr mobaynida hukmron bo'lgan sovet tarixshunosligiga xos mafkuraviy cheklolar hamda "yagona sovet xalqi" konsepsiyasi mustaqillik yillarida o'rnini metodologik plyuralizmga bo'shatib berdi. Mazkur o'zgarish etnik jarayonlarni nafaqat sinfiy kurash, balki sotsiomadaniy dinamika, antropologik yaxlitlik va fanlararo (etnografiya, sotsiologiya, demografiya) yondashuvlar asosida tadqiq etishga imkon yaratdi.

Zamonaviy tadqiqotlarda jahon miqyosida e'tirof etilgan ilmiy konsepsiyalarning o'zaro integratsiyalashuvi yaqqol kuzatilmoqda. Xususan, L.Gumilyov nazariyasi O'zbekiston qozoqlarining avtohton (tubjoy) tabiatini hamda ularning mahalliy landshaft bilan uzviy bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. F.Bart konsepsiyasi esa mazkur jamoaning o'zbek jamiyatiga to'la integratsiyalashgan holda, o'zining "etnik chegaralari" va o'zligini qat'iy saqlab qolayotganini tushuntirib beradi. Shu bilan birga, B.Anderson g'oyalari asosida zamonaviy axborot va ta'lim makoni tarqoq yashayotgan diaspora vakillari ongida "tasavvur qilingan yaxlit jamoa" obrazini barqaror ushlab turishi tasdiqlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistondagi qozoqlar tarixi bo'yicha shakllangan nazariy-uslubiy asoslar milliy tarixshunoslik an'analari va innovatsion yondashuvlarni o'zida mujassam etadi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar nafaqat ilmiy bo'shliqlarni to'ldirishga, balki mintaqa xalqlari o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Qozoq milliy madaniy markazi joriy arxivi.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 464.
3. Safran, William. Diasporas in. Modern Societies: Myths of Homeland and Return // Diasporas, 1991. Vol.1. №1. – P.83–99.
4. Cohen, Robin. Global diasporas: An introduction. – Second edition. – N.Y., 2008. – 219 p.
5. Мирзиёев Ш.М. Кўрсатилган асар. – Б. 378-379.
6. Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. – Москва/СПб: Academia, 2002. – 608 стр.
7. Барт Ф. Этнические группы и социальные границы: Социальная организация культурных различий. – М.: Новое изд-во, 2006. – 198 с.
8. Андерсон Б. Воображаемые сообщества. Размышления об истоках и распространении национализма. – М.: Кучково поле, 2016. – 416 с.

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000